



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

OLIY TA’LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O’QITUVCHILARI SALOMATLIGINING IJTIMOIIY -GIGIENIK JIHATLARINING O’RGANILGANLIGI(ADABIYOTLAR SHARHI)

Yusupova O.B., Atabaeva G. S.
Urganch davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari salomatligining ijtimoiy-gigienik jihatlarining o’rganilganligi to’g’risidagi ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi. SHuningdek, Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari salomatligi holati, ta’sir qiluvchi kasbiy omillar, ularning turlari, tahlil qilindi va sog’lig’iga ta’sirlari aniqlandi.

Kalit so’zlar: OTM professor-o’qituvchilari, salomatlik, kasb omillari

SOCIO-HYGIENIC ASPECTS OF THE HEALTH OF THE TEACHING STAFF OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (LITERATURE REVIEW)

Yusupova O.B., Atabayeva G. S.
Urgench State Medical Institute

Annotation. This article analyzes the results of a scientific study on the medical and social aspects of the health of the teaching staff of higher educational institutions. The health status of the teaching staff of higher educational institutions, the professional factors influencing it, their types and their impact on health are also analyzed.

Keywords: teachers of higher educational institutions, health, health, professional factors

ИЗУЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ГИГИЕНИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ЗДОРОВЬЕ ПРОФЕССОРСКО-ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКОГО СОСТАВА ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Юсупова О.Б., Атабаева Г. С.

Ургенчский государственный медицинский институт

Аннотация. В данной статье проанализированы результаты научного исследования по изучению социально-гигиенических аспектов здоровья профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений. Также проанализировано состояние здоровья профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений, влияющие на него профессиональные факторы, их виды и определено их влияние на здоровье

Ключевые слова: преподаватели высших учебных заведений, здоровье, здоровье, профессиональные факторы

So’nggi yillarda ta’lim sohasi xodimlari, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari o’qituvchilarining salomatligi va mehnatini muhofaza qilishda, tibbiy profilaktika va ruhiy salomatlik sohasidagi tadqiqotchilar, mutaxassislarning e’tibori ortib bormoqda. Bu nafaqat o’quv jarayoni sifatiga talablarning ortishi, balki universitet o’qituvchilari kundalik faoliyatida duch keladigan kasbiy va psixo-emotsional xavflarning ortib borayotgani bilan izohlanadi.

Oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy ta’lim, ko’p bosqichli hisobot tizimi, ta’lim sifatini baholash va ma’muriy bosim sharoitida professor-o’qituvchilar tarkibiga psixofiziologik yuklama sezilarli darajada oshmoqda.

SHu bilan birga, sanitariya-gigienik mehnat sharoitlari bilan bog’liq muammolar saqlanib qolmoqda - o’quv xonalarining ventilyatsiyasi va yoritilishining qoniqarsiz sifati, ish joylarining ergonomikasi yetarli emas, ishning davomiyligi va tabiati bo’yicha standartlarga rioya qilmaslik, shu



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasini mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

jumladan masofaviy ish paytida bularning barchasi o‘qituvchilarda surunkali charchoq, kasbiy charchash, uyqu buzilishi, yurak-qon tomir, endokrin va tayanch-harakat tizimlari kasalliklarining rivojlanishi uchun old shart-sharoitlarni yaratadi.

Hammamizga ma‘lumki, pedagogik xodimlarning sog‘lig‘i holati o‘quv jarayoni samaradorligiga, zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini faol joriy etishga, ta‘lim tashkilotlarining ta‘lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligiga, ular ta‘lim berayotgan kontingentlarning sog‘lig‘iga bevosita ta‘sir qiladi.

Pedagogik faoliyat intellektual, hissiy, emotsional yuklamalar, ovoz bog‘lamalarini va asosan tik turgan holda ishlashi bilan kechadigan faoliyat turiga kiradi. Mutaxassisning fikriga ko‘ra ruhiy yuklama bilan kechadigan ovoz boylamining zo‘riqishi ovoz a‘zolarining kasb kasalliklari rivojlanishiga yordam berishi mumkin. O‘qituvchida dars paytida ham, darslarga o‘z-o‘zini tayyorlashda ham ko‘rish bilan bog‘liq yuklamalar rivojlanishi mumkin. O‘qituvchining ish holati erkin hisoblanadi, ya‘ni o‘qituvchining xohishiga ko‘ra istalgan vaqtda o‘zgartirilishi mumkin, lekin 70% o‘qituvchilar ish kunining ko‘p qismini tik turgan holatda o‘tkazishlarini bildiradilar.

O‘qituvchilarning kasbiy faoliyatidagi noqulay omillar vaqt o‘tishi bilan organik darajada nomoyon bo‘lib, butun organizmni faoliyatini buzilishiga sabab bo‘ladigan ma‘lum funktsional o‘zgarishlarga olib keladi. Mantiqan olsak, aqliy mehnat birinchi navbatda markaziy asab tizimiga ta‘sir qiladi.

G.K. Semenovning (1976) ta‘kidlaganidek, o‘qituvchilik aqliy zo‘riqishni, odamlar bilan doimiy munosabatda bo‘lishni, o‘zini o‘zi boshqarishning yuqori darajasini va intellektual faollikni talab qiladigan kasbdur. Bu xususiyatlar o‘qituvchilarning salomatlik holati va ish faoliyatiga ta‘sir qiladigan psixo-emotsional, gigienik va tashkiliy omillarning jamlanmasi bo‘lgan noyob professional kontekstni tashkil qiladi. Shu bilan birga, universitet professor-o‘qituvchilari o‘rtasida kasalliklarning oldini olish tizimi yetarli darajada tuzilmaganligicha qolmoqda va mehnat sharoitlarini yaxshilashga ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab qiladi.

M.A.Sorokinning tibbiyot institutlari o‘qituvchilarini markaziy nerv sistemasi funktsional xususiyatlarini o‘rganish xulosalariga ko‘ra ko‘pgina o‘qituvchilar o‘quv yilining oxiriga borib kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan haddan tashqari charchash va ortiqcha zuriqishlarni oldini olish tadbirlariga muhtoj bo‘lishadi.

Organizmning barcha tizimlarini uyg‘un faoliyatini o‘ziga jalb qiladigan muskullar ishidan farqli ravishda Oliy ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarining aqliy faoliyati organizmning bir qator fiziologik tizimlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi bir tomonlama yuklamalar beradi.

Smagulov N.K., Yevnevich A.M. va b.larning (2020) Karaganda tibbiyot instituti o‘qituvchilarida o‘tkazgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, anketa so‘rovi natijalariga ko‘ra respondentlarning faqatgina 66,6; 85% salomatlik holatini yaxshi deb baholagani va yosh ortishi bilan bu ma‘lumot kamayib borayotganligi qayd qilingan. Professor-o‘qituvchilarning salomatligini kasalliklar tarkibi bo‘yicha olib o‘rganilganda 30-49 yoshdagilarda va 50 yoshdan oshgan xodimlarda yurak-qon tomir kasalliklari 52,6 va 61,9 % da, tayanch apparat tizimi kasalliklari 55,3 va 47,6 % da, ovqatlanish tizimi kasalliklari 36,4 va 42,9 % ekanligini keltirilgan. E‘tiborli jihati shundaki, mualliflar tibbiyot instituti professor-o‘qituvchilarining salomatlik darajasining pastligi va kasallanish darajasining yuqoriligining asosiy sababi bu harakat faolligining pastligi, noratsional ovqatlanish, o‘z sog‘lig‘iga yetarlicha e‘tibor bermaslik, tibbiy-profilaktika tavsiyalariga amal qilmaslik va o‘z-o‘zini davolash ekanligi deb ko‘rsatadilar.

Tolmachev Denis Anatol‘evichning tibbiyot instituti o‘qituvchilarining hayot sifati va salomatligini kompleks baholash mavzusida olib borgan ilmiy tadqiqot ishi xulosalariga ko‘ra 100 ta so‘rov qilingan o‘qituvchilarning 60,3 % o‘zini salomatligini qoniqarli, 9,6% i yomon va 30,4 % esa o‘zlarini sog‘lom deb baholaganini ta‘kidlaganlar. Lekin o‘z o‘zini salomatlik holatini sub‘ektiv baholash haqiqiy holatga to‘g‘ri kelmaydi, ya‘ni so‘rovnoma natijalariga ko‘ra 63,9 % o‘qituvchilar surunkali kasalliklari borligini, 94,5% o‘qituvchilar esa yil mobaynida o‘tkir kasalliklar bilan



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

kasallanganligini ma’lum qilganlar. Muallif o‘z-o‘zini baholashda o‘qituvchilarning yoshi va salomatlik holatida bog‘liqlik borligini aniqlab, o‘qituvchilarni yoshi oshib borishi bilan salomatligini yomonlashib borishini ta’kidlagan.

2021 -yilda Smirnova Ye.A., Kuznetsova L.V lar tomonidan OTM professor o‘qituvchilarini harakat faolligi darajasi o‘rganilib tahlil qilingan. Olingan natijalarga ko‘ra OTM o‘qituvchilari kam harakatli hayot tarziga ega. Ularning ish vaqtining ko‘p qismi jismoniy faollik darajasining pasayishiga sabab bo‘luvchi kompyuter oldida o‘tirib ishlash yoki ma’ruza o‘qishlar bilan o‘tadi. Bundan tashqari yuqori aqliy yuklama va vaqtning yetishmasligi ham o‘qituvchilarni harakat faolligiga ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi. Jismoniy faollikning etishmasligi esa turli kasalliklarning, masalan, yurak-qon tomir kasalliklari, ortiqcha vazn yig‘ilishi hamda semizlik kabi kasalliklarni rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Muntazam jismoniy faoliyat umumiy holatni yaxshilanishiga, ish qobiliyatini oshishiga hamda stressni kamayishiga yordam beradi.

E.A. Kudrina va D.A. Tolmachevlarning Ijev davlat tibbiyot akademiyasi (Rossiya) professor-o‘qituvchilari va Udmurt respublikasi shifokorlarining salomatligini 2007-2010 yillardagi vaqtincha mehnatga layoqatsizlik tufayli kasallanishni o‘rganish ilmiy tadqiqoti natijalariga ko‘ra ikkala guruh vakillari orasida xam birinchi o‘rinni mehnatga layoqatsizlik kunlari va hodisalari bo‘yicha nafas yo‘llari kasalliklari, ikkinchi o‘rinni qon aylanish tizimi kasalliklari egallaganligi keltirilgan. To‘rtinchi o‘rinni ikkala guruhda ham ko‘z va hosilalari kasalliklari, ovqat hazm qilish, siydik chiqaruv organi kasalliklari esa beshinchi o‘rinni egallaydi. Jalb qiladigan tomoni shundaki, asab tizimi kasalliklari professor o‘qituvchilar tarkibida uchinchi o‘rinni, shifokorlarda esa yettinchi o‘rinni egallaydi. Professor-o‘qituvchilarda mehnatga layoqatsizlik kunlari soni shifokorlar bilan taqqoslanganda barcha sabablar bo‘yicha 1,7 martaga, kasalliklar bo‘yicha esa 1,5 martaga kamni tashkil qiladi.

M.S.Mikerovalar (Moskva- 2007y) tomonidan tibbiyot oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining salomatligi va unga ta’sir qiluvchi omillarni so‘rovnoma yordamida o‘rganish natijalariga ko‘ra 100 ta so‘rovnoma o‘tkazilgan o‘qituvchidan 70,7 holatida salomatlik holatida o‘zgarishlar borligini, 65,8 holatda surunkali kasalliklar aniqlanganligi qayd qilingan. SHuningdek, professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati bir necha turlarning jamlamasi bilan tavsiflanadi - pedagogik, ilmiy tadqiqot, tibbiy, ijtimoiy va boshqalar, hamda, moddiy ta’minlanish darajasini oshirish uchun to‘liq bo‘lmagan ish vaqtiga ehtiyoj 100 o‘qituvchiga 55,0 ni tashkil qiladi. O‘qituvchilarning o‘z-o‘zini baholashlariga ko‘ra, ularning sog‘lig‘ining yomonlashishiga quyidagi omillar salbiy ta’sir ko‘rsatadi: notinch uyqu, nonushtaga e’tibor bermaslik, ish haqidagi qoniqmaslik, ish joyidagi noqulay sanitariya-gigiyena sharoitlari va boshqalardir. Jalb qiladigan tomoni, o‘qituvchilar orasida ko‘z va ko‘z hosilalari kasalliklari juda ko‘p tarqalgan (100 ta so‘rovdan o‘tkazilganda 43.6%).

Muallifning fikricha bunday holat o‘qituvchilar mehnatining kasbiy xususiyatlari va yuqori darajadagi ko‘ruv yuklamasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Eng ko‘p tarqalgan kasalliklar surunkali bronxit (18,1%), surunkali faringit (17,1%), surunkali tonsillit (15,1%), va surunkali laringit (9.7%). Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklaridan eng ko‘p tarqalganlari surunkali gastrit (32.3%), oshqozon va 12 barmoq ichak yara kasalliklari (14,3%) tashkil qiladi va barcha so‘rovdan o‘tkazilganlarda oshqozon ichak tizimi kasalliklari oxirgi yil davomida bezovta qilgan. Muallif tomonidan rasmiy tibbiy hujjatlarni tahliliga ko‘ra tibbiyot oliy ta’lim muassasalari professor- o‘qituvchilari kasalliklari ichida yetakchi o‘rinni qon aylanish tizimi kasalliklari (35,6%), keyingi o‘rinni ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari (15.9%), va siydik chiqaruv tizimi kasalliklari (11.8%) egallaganini qayd qilingan. Muallifning xulosasiga ko‘ra, bu kollektivda surunkali patologiyaning tarqalishi yuqori bo‘lib, u doimiy ravishda ortib borayotgan talablar fonida turmush tarzi va turmush sharoitlarini, mas’uliyat va ish zo‘riqishlarini o‘z ichiga oladigan omillar kombinatsiyasi ta’sirida rivojlanadi.

2017-2019 yillarda I.I.Mechnikov nomidagi SHimoliy-g‘arbiy davlat tibbiyot Universitetida Ye. A. Baymakov tomonidan Tibbiy ta’lim muassasasi o‘qituvchilarining kasbiy va xulq-atvor xavf



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasini mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

omillarini gigienik baholash va sog‘lig‘ini saqlash va xulq-atvor munosabatlarini shakllantirish tizimini asoslash bo‘yicha o‘tkazgan ilmiy tadqiqot ishi natijalariga ko‘ra, surunkali kasalliklar universitet o‘qituvchilarining 85,7 foizida; patologik jarohatlanish tekshirilgan 100 kishiga 279,4 holatni tashkil etishi qayd yilingan. Patologik jarohatlanish tarkibida qon aylanish tizimi kasalliklari (26,4%), ko‘z va uning hosilalari kasalliklari (24,8% ni), endokrin tizim kasalliklari, ovqatlanishning buzilishi va metabolik kasalliklar (19,3%) ni, suyak muskul tizimi va birlashtiruvchi to‘qima kasalliklari (15,1%) ni tashkil qiladi. Natijalarga ko‘ra yosh oshib borishi bilan o‘qituvchilarda patologik jarohatlanish ko‘z va uning hosilalari kasalliklaridan tashkari barcha sinf kasalliklari ortib borishi qayd etilgan. SHuningdek, anketa so‘rovi natijalariga ko‘ra, tibbiyot oliy o‘quv yurtlari va kollejlari o‘qituvchilari o‘rtasida xulq-atvorning quyidagicha ustuvor xavf omillari aniqlanganligi: jismoniy faoliyatning etarli emasligi (61,1%), uyquning etarli emasligi (46,1%), noto‘g‘ri ovqatlanish (16,2%) va chekish (15,8%), sog‘liqni saqlash xulq-atvori muammolari haqida yuqori xabardorlik fonida (91,1%) tashkil etishi qayd qilingan. Professor- o‘qituvchilar orasida salomatlikning yomonlashuvi xavf omili sifatida 40 yoshgacha va -45 yoshdan kattalarda uyqu davomiyligining kamligi, tamaki mahsulotlari iste‘moli, ortiqcha vazn hamda jismoniy faollikning yetishmasligi keltirilgan.

S.V. Maslovskaya va M.V. Fomina o‘qituvchilarning sog‘lig‘ini tahlil qilib, 15-20 yillik tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar uchun "pedagogik inqirozlar", "charchoq", "charchash" juda ham xos o‘zgarishlar deb ta’kidlaydi.

L.M.Mitina va boshqalarning ma’lumotlariga ko‘ra, o‘qituvchilarning uchdan bir qismi (30% dan ko‘prog‘i) nevrozli bemorlarnikiga teng yoki undan ham pastroq ijtimoiy moslashuv darajasiga ega. Shu munosabat bilan ko‘plab mualliflar mamlakat xalq ta’limi kadrlarini salomatligini saqlash – o‘qituvchilarning kasbiy uzoq umr ko‘rishini ustuvor vazifa sifatida qayd etishini keltiradilar. Bu yangi ya’ni tibbiy-psixologik profilaktika va o‘qituvchilar salomatligini muhofaza qilish nomli ilmiy sohani yaratishni talab qiladi: Birlamchi profilaktika salomatlikni saqlash uchun eng muhim hisoblanadi. Bu insonning turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ovqatlanish odatlari, jismoniy faolligi va nosog‘lom odatlarga munosabatini tushunish aniqroq profilaktika choralari rejalashtirishga yordam beradi deb ta’kidlaydilar.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, professor-o‘qituvchilarning salomatlikni saqlash xulq-atvoriga ta’sir etuvchi omillarni o‘rgangan Pirmicchi E., Rahman S., Durmus A. larning tadqiqoti e’tiborga loyiqdir.

Turkiyadagi Universitetning turli fakultetlaridan 509 nafar o‘qituvchilari jismoniy faolligi, o‘zini namoyon qilishi, sog‘liq uchun mas’uliyati, shaxslararo munosabatlari va stressni boshqarish bo‘yicha so‘rovdan o‘tkazildi. Tadqiqotchilar respondentlarning ta’lim darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ular o‘z sog‘lig‘i haqida qayg‘urishlarini aniqlaganlar. Mualliflar erkaklar va ayollar o‘rtasidagi salomatlikni saqlash xulq-atvorida sezilarli farqlarni topmadilar, ammo ular respondentlarning moliyaviy ta’minlanganligi bilan bog‘liqligini qayd etdilar: oylik daromad qancha ko‘p bo‘lsa, o‘qituvchining turmush tarzi shunchalik sog‘lom bo‘ladi. Bu farqlar statistik jihatdan haqiqiy edi.

Umuman olganda, mualliflar fakultet a’zolarining tibbiy mas’uliyat bilan bog‘liq xatti-harakatlari (ya’ni, o‘z sog‘lig‘ini to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazorat qilish) etarli darajada rivojlanmagan va ko‘pincha stressni boshqarish ko‘nikmalariga ega emas degan xulosaga kelishdi. Shu munosabat bilan universitetlarda fakultet professor-o‘qituvchilari uchun salomatlikni saqlash va stressni boshqarish bo‘yicha mualliflar tomonidan o‘quv seminarlarini tashkil etish taklif etildi. Bundan tashqari, mualliflar professor-o‘qituvchilar orasida sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirish kerak deb hisoblaydilar.

M.I. Lesovskaya tomonidan olib borilgan ilmiy ishlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, aqliy mehnat paytida antioksidant tizimning etishmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan fagotsitlarning redoks-muvozanatidagi buzilishlar ustunlik qiladi. Bunday o‘zgarishlar organizmda moslashuv qobiliyatining pasayishiga olib keladi va moslashuv mexanizmlarning ishlamay qolish xavfini oshiradi.



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

Bugungi kunda mehnatning tabiati va ishlab chiqarish muhiti omillarining aqliy faoliyat bilan shug‘ullanadigan odamlarning sog‘lig‘iga ta‘sirini (ko‘pincha noqulay) ko‘rsatadigan katta miqdordagi ma‘lumotlar to‘plangan. Avvalo, bu surunkali charchoq va haddan tashqari ish muammosi bo‘lib, adabiyotda ko‘pincha surunkali charchoq sindromi (SCHS) va ingliz tilidagi manbalarda "to‘yganlik" deb ta‘riflanadi. Bu holat haddan tashqari ortiqcha ish yukiga organizm reaksiyasi bo‘lib, kasbning o‘zi yoki mehnatni tashkil qanday tashkil qilinganligi bilan bog‘liq (stressli, muntazam kundalik ish yoki kasbiy faoliyat doirasidan tashqariga chiqadigan kasbiy faoliyatga bo‘lgan talablar, inson omiliga e‘tibor bermaslik, tashkiliy o‘zgarishlarning noto‘g‘ri hisoblangan natijalari va boshqalar).

O‘qituvchilarda ovoz bog‘lamlarida kasbiy o‘zgarishlar sababli nutqning buzilishi xavfi yuqori darajada. Irlandiyalik tadqiqotchilar (Williams N.R.) 2002-2005 yillarda Irlandiya Respublikasida o‘qituvchilarning sog‘lig‘i yomonligi sababli nafaqaga chiqishining tibbiy jihatlarini o‘rganishdi. Olingan natijalarga ko‘ra, o‘qituvchilar 52 yoshida nafaqaga chiqarilgan va buning sabablarining 46% ni ruhiy buzilishlar; 19 % ni onkologik kasalliklar, 14% ni qon aylanish tizimi kasalliklari hamda 10% ni tayanch harakat tizimi kasalliklari tashkil qilganligi qayd qilingan.

Xulosa. O‘rganilgan adabiyotlardan shu holat ma‘lum bo‘ldiki, Oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari organizmiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan xavf omillari hamda turli xildagi kasb kasalliklarining tarqalishi keyingi yillarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida, jumladan mamlakatimizda ham yuqoriligidan saqlanib qolmoqda va ayrim davlatlarda o‘rish xususiyatiga ega bo‘lib, har qanday jamiyatda katta sanitariya-gigienik, tibbiy-demografik, tibbiy-ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari ko‘proq xorijiy va MDH mamlakatlarida amalga oshirilgan. Amalga oshirilgan aksariyat Mamlakatimizda ushbu mavzuda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar juda kam. Viloyatlar kesimida, xususan Xorazm viloyati misolida bu kabi ilmiy izlanishlar amalga oshirilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вайнер Э.Н. Формирование здоровьесберегающей среды в системе общего образования // Валеология. – 2004. – №1. – С.21-26.
2. Зайцев Г.К., Колбанов В.В. Здоровье учителя: валеологический самоанализ // Педагогика. – 1994. – №3. – С. 15-19.
3. Земцов Е.В., Серкерова В.С., Асиновская С.А. Гигиенические особенности условий труда и состояния здоровья учителей школ г. Пятигорска // Бюл. Здоровье населения и среда обитания. – 2004. – №5. – С.18-22.
4. Калина И.Г. Профессиональное здоровье педагога – важное условие формирования здоровьесберегающей образовательной среды // СЭТС/ Социально-экономические и технические системы: исследование, проектирование, организация. – 2006. – № 15. –
5. Ковалева А.И., Пышнов Г.Ю. Проблема хронического утомления // Медицина труда и промышленная экология. – 2001. – №11. – С. 1-5.
6. Матушанский Г.У., Цвенгер Ю.В. Основные характеристики психолого-педагогической подготовки и переподготовки преподавателя высшей школы на современном этапе // Психологическая наука и образование. – 2001. – №2. – С. 26-31.
7. Миннинбаев Т.Ш. Актуальные вопросы университетской гигиены на современном этапе // Здоровье, обучение, воспитание детей и молодежи в XXI веке: матер. Междунар. Конгр. – М., 2004. – Ч. II. – С. 272-275.
8. Митина Л.М., Митин Г.В., Анисимова О.А. Профессиональная деятельность и здоровье педагога. – М., 2005. – С. 7.
9. Османов Э.М., Кораблев Ю.Ю. Проблема гиподинамического режима работы преподавателей вуза. – Вестник ТГУ. – Т.12, Вып.3. – 2007. – С.355-356.



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

10. Рыжов А.Я., Комин С.В., Копкарева О.О. Физиолого-гигиеническая характеристика труда преподавателей вуза. – <http://www.fesmu.ru/elib/search.aspx?author>.

11. Сорокина М.А. Особенности функционального состояния центральной нервной системы у преподавателей высшей школы // Фундаментальные исследования. – №11. – 2008. – С. 28-32

12. Фролов А.Г., Хомочкина С.А., Матушанский Г.У. Адаптации преподавателя к профессионально-педагогической деятельности в высшей школе // Educational Technology & Society. – №9(2). – 2006. – С.265-273.

13. Шверина О.В., Халцонен О.В., Косарева Н.П. и др. Вопросы оптимизации труда преподавателей вуза (обзор) // Матер. науч. конф. Студентов и аспирантов 16 апреля 2003 года. – Тверь: Твер. гос. ун-т, 2004. – С.20-24.

14. Williams N.R. Occupational groups at risk of voice disorders: a review of the literature // Oxford Journals Medicine Occupational Medicine. – Vol. 53, № 7. – 2008. – P. 456-460.

